

MEGAPOLISLARDAGI MIGRATSIYANING BOLALAR RUHIY HOLATIGA TA'SIRLARI.

Amirova Nodira Shamshiyevna

Alfraganus Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada migratsiyaning jamiyatdagi o'rne, migratsiyaning bolalar rivojlanishigadagi ta'siri va oqibatlari, jumladan, bolalarining ahvoli va ularning muammolari, ularni bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ota ona, migratsiya, xorij mamlakatlari, bola ruhiyati, iqtisodiy muammolar, Zigmund Freyd, nevrozlar, ehtiyojlar, bandlikni rivojlantirish, Mixail Labkovskiy.

XXI asrda yer kurrasi go'yo shunday shiddat bilan aylanayaptiki, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar misoli cheksiz. Undagi yutuqlar, talaygina muammolarni inson ongi va shuuri xali to'laqonli xazm qilolgan yo'q yoki yechimiga imkoni yo'q. Bugun insoniyat oldida turgan ana shunday muhim masalalardan biri Migratsiya masalasidir.

Ingliz yozuvchilaridan biri shunday degan ekan: "Migratsiya- bu xuddi narigi dunyoga ketganday gap. U dunyodan xali hech kim qaytmaganiday, hech bir migrant ham qaytmas". Bugungi kunda bu anchayin haqiqatga yaqin gap. Migrantlikni bo'yniga olgan har bir insonga u borgan joyiga moslashib, oyoqqa turishi nechig'li qiyin bo'lsa, uni ortga Vataniga qaytishi undanda qiyin. Shu sababli bugun katta shaharlarda fuqorolar soni muhojirlar hisobiga oshib bormoqda. Buni o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari bor albatta. Quyida shularni ko'rib chiqamiz.

Muhajirlar o'z Vatanidan, o'zining "zona komfortidan" kechib, katta shaharlarga katta orzulari ro'yobini ko'zlab borar ekan, ular bu yo'lda hech qanday qiyinchilikdan qaytmas va qo'rqmas bahodirlarday go'yo. Yaxshi hayot ilinjida yo'lga chiqqan bu insonlar suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, migrantlik nonini yeydilar. Natijada Ular har qanday sharoit va vaziyatga ko'nikuvchan va moslashuvchan bo'lib qoladilar. Bu esa o'z navbatida megapolislarning foydasiga ishlaydi. Qanday qilib deysizmi? Aksariyat migrantlar avvalo yaxshi o'rnashib olish uchun ish beruvchining barcha talablariga ko'nadi, u bilan haq talashmaydi, mehnat shartnomasi, tibbiy sug'urta haqida-ku so'z yuritilishi kamdan kam holat. Bu esa ish beruvchi uchun ayni muddao, ya'ni:

birinchi o'rinda- arzon ishchi kuchi;

ikkinchi o'rinda- ishga joylashib qolish ilinjida ko'p va beminnat ishlaydigan sodiq ishchi;

uchinchi o'rinda -hech qanday mukofotlar, to'lanmaydigan bemorlik va dam olish ta'tillarisiz ham ishlashga tayyor sodiq yordamchi;

to'rtinchidan – oiladan, farzandlaridan uzoq bo'lgan ya'ni 24/7 jadvalida bor e'tiborini ishga bera oladigan ruschada aytganda "dostupniy variant".

Ming afsuski, beshinchidan, ish haqini bermay, ishlatib, pulini bermay ham bo'shatib yuborsa, "qo'lidan hech nima kelmaydigan bir bechora"

Uzoq yillar davomida yaxshi hayot ilinjida yo'lga o'tlangan muhojirlarlarni shu va shu kabi qator muammolar qiynab keldi.

O'zbekiston xorijdagi o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining uyushgan holda ishga joylashtirilishini qonunlashtirmoqda.

Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri Nozim Husanovning ta'kidlashicha, tashqi mehnat migratsiyasiga doir me'yorlar yagona qonun ko'rinishiga keltirilgan, xalqaro normalar milliy qonunchilikka uyg'unlashtirilgan, mehnat migratsiyasini tashkil qilishda davlat, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar vakolatlari belgilanmoqda.

"Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi ortidan mehnat muhojirligi oqimi bir qadar o'zgarishi, xorijdan ish izlash, ishga joylashish markazlashishi kutilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mehnat migratsiyasini rag'batlantirishga doir imzolangan qarorlar ortidan muhojirlar oqimini tashkillashtirish choralari ko'rila boshlangan edi.

Xususan, Vazirlar Mahkamasida alohida departament ochilgan, mehnat muhojirlari bilan shug'ullanuvchi tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tashkil qilinib, unga muhojirlarning mehnat faoliyatiga, ish topishiga ko'maklashish vazifalari yuklatilgan edi.

Statistika mehnat muhojirlarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi ulushi tobora o'sib borayotganini ko'rsatmoqda.

Muhajirlar uzoqdan bo'lsa ham o'z yurtiga, ham ishlab turgan davlatlariga foyda keltirsalarda, uzoq vaqt Vatandan, oila a'zolari-yu, qarindosh urug'dan olisda yashash ularning psixik holatlariga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu hissiy holat bora bora mehnatga layoqatni susaytirib, ish samaradorligini ham tushiradi. Oilaga va Vatanga bo'lgan sog'inchi hissi muhojirni ortga qaytarsaku nur ustiga a'lo nur, ammo bu sog'inchni bosish uchun har xil nomaqbul ishlarga aralashib qolayotganlar ming afsuski oramizda yo'q emas. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur: "O'zga yurtda shox bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l" degan ekanlar.

Muhajirlik masalasini har tomonlama ko'rib chiqdik, ammo , tangananing ikkinchi tomoni bo'lganidek , bugun biz ko'rib,lekin , "jim bo'lgan", ko'rib ko'rmaganlikka olgan tomonlari ham bor.

Muhajirlar avvalo o'z sharoitini yaxshilasin, iqtisodiyotni rivojlantirsin, davlatlarga foyda keltirsin, ammo.... Ammo uning farzandlarichi? Xo'sh , migratsiya masalasi o'sib kelayotgan yosh avlodga qanday ta'sir qiladi?

Quyida shu haqda so'z yuritamiz.

Ma'lumki, inson dunyo haqidagi tasavvurlari 7 yoshgacha rivojlanadi. Nima yaxshi-yu nima yomon, baxtli onlarni his qilish, ilk qurquv hissi, bolalikning oltin onlari aynan 7 yoshgacha shakllanadi va bu inson miyasida butun umrga yetadigan tasavvurlarni qoldiradi. Eng ajablanarlisi shundaki, hayotimizning keyin qanday kechishini ham aynan shu xotiralar belgilashi bugungi kun psixologlari tomonidan qayd etilmoqda. Bugun meni o'ylantirgan masala esa ,aksariyat yoshlar: "bolam kichikligida uy joyimni qilib olay, xarakatimni qilib olay, ertaga bolam kata bo'lsa qanday yetkazaman, qanday eplayman" kabi bir olam vajlar bilan kichkina bolalarini yaqinlariga tashlab, muhojirlikni bo'yinlariga

olib olislariga pul toppish ilinjida ketmoqdalar... albatta ularga ham oson emas bu.. Norasida farzandini yoshligini ko'rmay, olislarda yurish albatta hech kimga havas emas.

Lekin meni kichik bolachalar taqdiri ko'proq havotirga soladi. Ular yaxshi qo'llarda qolsa hop hop, "joyiga tushmaganlari" qancha? Aksariyat yoshlar farzandlarini yoshi kekxa ota onalariga tashlab ketadilar. Lekin asli ularning o'ziga qaraydigan odam kerak.

Mashhur rus pedagog va psixologi Mixail Labkovskiy o'zining "Sevaman va tushunaman (Люблю и понимаю) Maskva 2024" kitobida shunday dep yozadi:

1. "Bir yarim yoshgacha bola dunyoni faol o'rganadi, unga: "Tegma! Aralashma! Ochma! Xavfli! Yiqilasan!" – degan so'zlarni o'rniga uyingizni iloji boricha xavfsiz joyga aylantiring.

2. Bola sizning xarakatlaringizga qarab, xarakatlanadi. Xarakatlaringizga e'tibor bering.

3. Kichkina bolalar o'z hissiyotlarini xali boshqara olmaydilar, boshqalar bilan hisoblasha olmaydilar, ulardan emotsiyalarini nazorat qilishni talab qilish kulgili.

4. Bola bir yarim yoshga yetganida unga harakat sabablarini tushuntirib, u bilan kelishishga harakat qiling.

5. Agar bolaga sizning e'tiboringiz yetishmasa, uning rivojlanishi "orqaga ketishi mumkin": u mustaqil kiyinish va ovqatlanishdan bosh tortishi, injiqlik qilishi va uni ovqatlantirishingizni so'rashi mumkin.

Endi tasavvur qiling, har qanday yoshda bo'lmasin, ota onasidan uzoq bo'lgan bolalar haddi sig'ib erkalik qilolmasa, yoki buvi va bobo tomonidan haddan ortiq taltaytirib yuborilsa, ularning tantiqligi boshqalarga erish tuyulsa, bolaligini bola bo'lib yasholmasa, bu ularning psixologik rivojlanishiga va psixikasiga kata salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Buyuk psixolog Zigmund Freyd o'z vaqtida qondirilmagan ehtiyojlar nevrozlarni keltirib chiqarishini o'rgangan.

O'zimning kuzatuvlarimdan shuni guvohi bo'ldimki, ota onasidan ayro katta bo'lgan bolalar introvert, uyalchang, ommaga kirishishga, fikrini bayon qilishga qiynaladi. Bir so'z bilan aytganda o'ziga bo'lgan ishonchi kam bo'ladi. Ularni ko'ngli "bo'sh" bo'lib, har narsaga tez yig'lab yuboradilar. Bularning hammasi emotsional buzilish bo'lib, bolaga aynan biologik ota onasi bilan yashash nechog'lik muhimligini ko'rsatadi.

Yurtimizda aholini band qilish, Ularni ish bilan taminlashga qaratilgan haratlar bugun yurtimizda talaygina, jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida

[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3163]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi PQ-4227-son "2019-yilda aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir Sh. KUDBIYEV

Toshkent sh.,

2019-yil 10-may,

19-2019-B-son.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, har kim o'z uyida yayraydi.

O'z uying o'lan to'shaging. O'z Vatanimizda yayrab , boriga qanoat qilib, farzandlar bag'rida yashashga nima yetsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Mixail Labkovskiy “Люблю и понимаю” 2024 Moskva

Zigmund Freyd “Введения в психоанализ” 2021

Malik Mansur “O'zbekistonda Migratsiya masalasi” 2021.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni Qisqartirish

VavBandlik Vazirligi rasmiy sayti.